

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2022- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi 1 346,9 mln. AQSh dollarini va o‘shish sur‘ati 121,9 %ni, jumladan 452,8 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, 894,1 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 134,6 %ni tashkil etdi.

### 2022- yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)

	<i>yanvar-mart</i>		<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>1 105,2</b>	<b>1 346,9</b>	<b>121,9</b>

*shu jumladan:*

MDH davlatlari	524,8	561,6	107,0
boshqa davlatlar	580,4	785,3	135,3
<b>Eksport</b>	<b>441,1</b>	<b>452,8</b>	<b>102,7</b>

*shu jumladan:*


MDH davlatlari	140,8	156,1	110,9
boshqa davlatlar	300,3	296,7	98,8
<b>Import</b>	<b>664,1</b>	<b>894,1</b>	<b>134,6</b>

*shu jumladan:*


MDH davlatlari	384,0	405,5	105,6
boshqa davlatlar	280,1	488,6	174,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, %da

2022- yil yanvar-mart



2021- yil yanvar-mart




**2022- yil yanvar-mart oylarida  
viloyat eksport-importi tarkibi**

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>		<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2021- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>102,7</b>
paxta tolasi	0,1	0,0	7,1
oziq-ovqat mahsulotlari	11,6	9,1	80,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	3,7	3,4	93,9
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,2	10,0 m.
qora va rangli metallar	59,6	58,9	101,4
mashina va uskunalar	2,2	2,1	98,4
xizmatlar	0,6	0,6	96,7
boshqalar	22,2	25,9	119,6
<b>Import tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>134,6</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	17,7	19,8	150,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	8,9	12,6	190,5
energiya manbalari va neft mahsulotlari	6,6	2,9	58,8
qora va rangli metallar	12,8	13,3	139,9
mashina va uskunalar	28,3	30,3	144,5
xizmatlar	1,1	1,8	2,2 m.
boshqalar	24,6	19,3	105,7

Eksport tarkibida tovarlar 100,0 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (58,8 %), boshqa turdagi tovarlar (25,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,2 %), paxta tolasi (0,0%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,4 %), mashina va uskunalar (2,1 %), shuningdek, xizmatlar (0,6 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSh dollari)**




Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (30,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (19,8 %) qora va rangli metallar (13,3 %), hamda boshqa mahsulotlar (19,3 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.




### Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(mln. AQSh dollari)

2021- yil  
yanvar-mart



2022- yil  
yanvar-mart




**2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida  
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**

	<i>Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>
<b>Xitoy</b>	23,0	2,4 m.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	21,0	133,3
<b>Qozog'iston</b>	15,0	88,1
<b>Turkiya</b>	13,0	77,6
<b>Koreya Respublikasi</b>	4,2	2,0 m.
<b>Braziliya</b>	3,9	2,0 m.
<b>Ukraina</b>	1,9	101,2
<b>Germaniya</b>	1,4	137,4
<b>Afg'oniston</b>	1,3	63,5
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	1,2	111,0
<b>Polsha</b>	1,2	2,4 m.
<b>Italiya</b>	1,1	121,3
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	1,0	80,6
<b>Eron (Islom Respublikasi)</b>	0,7	3,0 m.
<b>Belarus Respublikasi</b>	0,7	174,8
<b>Hindiston</b>	0,6	152,6
<b>Irlandiya</b>	0,6	105,5
<b>Pokiston</b>	0,6	2,3 m.
<b>Ozarbayjon</b>	0,6	90,4
<b>Singapur</b>	0,6	83,1


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston va Afg‘oniston davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 81,6 %ini tashkil qiladi. Turkiya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston va Afg‘oniston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**2022- yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari  
bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da**

**Eksport**



**Import**




**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,7 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 %ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-mart oylarida 58,3 %ni tashkil qildi (2021- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,5 %ga teng bo‘lgan).

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining  
tashqi savdo aylanmasi  
(mln. AQSh dollari)**



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.



### **Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2022- yil yanvar-mart oylarida jami 19,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 18,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'zgarish sur'ati – 63,5 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida 13,3 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 10,6 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 48,9 %ga kamaygan.

Shuningdek, 2,6 ming tonna meva va rezavorlar 3,7 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,2 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-mart,  
mln. AQSh dollari**



Meva va  
rezavorlar  
2,6 ming  
tonna  
3,7 mln.  
AQSH dollari



Uzum  
2,2 ming  
tonna  
2,5 mln.  
AQSH dollari



Yeryon-  
g'oglar  
1,1 ming  
tonna  
1,4 mln.  
AQSH dollari



Sabzavotlar  
13,3 ming tonna  
10,6 mln. AQSH  
dollari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2022- yil yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 18,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 4,0 %ni tashkil etdi.